

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XALIMOVA NIGINA JAFARBEKOVNA

**TURISTIK DESTINATSIYALARDA IJTIMOY MEDIADAN
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Xalimova Nigina Jafarbekovna

Turistik destinatsiyalarda ijtimoiy mediadan foydalanishni takomillashtirish..... 3

Халимова Нигина Жафарбековна

Совершенствование использования социальных медиа в туристических
дестинациях..... 29

Khalimova Nigina Jafarbekovna

Improving the use of social media in tourist destinations 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XALIMOVA NIGINA JAFARBEKOVNA

**TURISTIK DESTINATSIYALARDA IJTIMOY MEDIADAN
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3673 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta‘lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hamroyev Halim Roziqovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Azizjon Anvarovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Matyakubov Umidjon Raximovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/27.09.2024.I.72.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “7” yanvar soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 220114, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi 11-uy. Tel./faks: 0 (365) 221-29-14, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A/1813 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 220114, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi 11-uy. Tel.: 0 (365) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024- yil “20” dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil “20” dekabr dagi 23 raqamli reyestr bayonnomasi).



O.X. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.Sh. Yavmutov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

B.N. Navruz-zoda

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda internet va axborot texnologiyalarining rivojlanish ko'rsatkichlari soat sayin oshib borishi natijasida, dunyo bo'ylab raqamli platformalardan, xususan, ijtimoiy mediadan foydalanish barcha sohalarida, shu jumladan, turistik destinatsiyalar uchun muhim masalaga aylanib kelmoqda. Asos solinishining dastlabki yillarida faqatgina muloqot qilish maqsadida foydalanilgan platformalardan, hozirgi kunda, kundalik aloqa masalalari, turizm, tadbirkorlik, ta'lim, tibbiyot, siyosat va boshqa bir qancha sohalarida faoliyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida foydalanib kelinmoqda. 2024-yil yanvar holatiga ko'ra, butun dunyo bo'ylab ijtimoiy mediadan foydalanuvchilar soni 4,7 milliardga yetganligi (dunyo aholisining 62,3 foizi)¹, bundan tashqari, UNWTO va Instagram platformasi destinatsiyalar va turizm sohasi tadbirkorlariga yangi auditoriyani qamrab olish va o'sishga qaytish uchun raqamli va vizual hikoyalar kuchidan foydalanishga yordam berish maqsadida "Turizmni tiklash bo'yicha qo'llanma"ni ishlab chiqish uchun kuchlarni birlashtirishi² turizmدا ijtimoiy mediadan foydalanishda ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda.

Jahonda ijtimoiy mediani tadqiq etish nazariyasi, rivojlanish tarixi va undan foydalanishdagi o'ziga xos xususiyatlar, turizm targ'ibotida ijtimoiy mediadan foydalanish zarurati, ko'rsatkichlari, yo'nalishlari va mohiyati, turistik destinatsiyalar targ'ibotida ijtimoiy mediadan foydalanishning ahamiyati, ijtimoiy medianing turistlar xabardorligiga va tashrif buyurish qaroriga ta'sir etish darajasi, umuman olganda, ijtimoiy media vositalarining turistlar xulq-atvoriga ta'sir etish ko'rsatkichlariga yo'naltirilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar qatorida, turistik destinatsiyalarning ijtimoiy media orqali targ'ibotida branding siyosatini olib borish, turistik makonlar uchun ijtimoiy media strategiyalarini ishlab chiqish, har bir ijtimoiy media kanali uchun kontent turi, mavzusi, shakli, sarlavhasi, izohi hamda e'lon qilish vaqtlari kabi barcha elementlarni qamrab oluvchi kontent rejalar shakllantirish masalalarini tadqiq etish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekiston turistik destinatsiyalari sayyohlarni jalb qilish, to'laqonli mukammal sayohat tashkil qilish uchun yetarlicha salohiyatga ega bo'lib, ijtimoiy mediadan foydalanish ko'rsatkichlarining ba'zi masalalarida, xususan, mamlakat hamda alohida turistik destinatsiyalar targ'ibotida keng qamrovli chora-tadbirlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Xususan, Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tarkibida "Milliy PR-markazi" DUK tashkil etildi va unga respublikaning turizm salohiyatini targ'ib qilishni tashkil etish bo'yicha ma'lum vazifalar yuklatildi³. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, turistik destinatsiyalar targ'iboti uchun ssenariylar va suratga olish ishlari konsepsiyasi, xususan, kontent rejalar ishlab chiqish, mamlakatning turizm salohiyatini targ'ib qilish bo'yicha

¹ Xalqaro statistika bazasi, <https://www.statista.com>, murojaat etilgan sana: 16.08.2024.

² Butunjahon turizm tashkiloti, <https://www.unwto.org>, murojaat etilgan sana: 16.08.2024.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/-3548467?ONDATE=15.01.2022>, murojaat qilingan sana: 16.08.2024

materiallarni tayyorlaydigan ijodiy guruhlar faoliyatini samarali tashkil qilish, umuman olganda, turistik destinatsiyalar uchun ijtimoiy mediadan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb masalalardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni (2019), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-sonli "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi Farmonlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoniga 1-ilova sifatida tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda turizm sohasiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy davlatlarda ijtimoiy media, turizmga ijtimoiy mediadan foydalanish bilan bog'liq nazariy-uslubiy masalalar bir qancha olim va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, L.Safko, D.Brake, W.Lim, J.Kietzmann, M.Boz, D.Unal, R.Bolton, O.Mansour, J.Treem, P.Leonardi, D.Leung, R.Zivkovic, J.Gajic, I.Brdar, J.Manning, D.Trottier, A.Kiralova, A.Pavlicecka, P.Kotler, G.Armstrong, T.Tarannum, F.Tjiptono, G.Khan, E.Yeong kabi xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan⁴.

⁴ Safko L., Brake D. K. The social media bible: tactics, tools, and strategies for business success. – John Wiley & Sons, 2009. – 842 p.; Lim W. The Effects of social media networks in the hospitality industry. University of Nevada. Las Vegas, 2010. – 44 p.; Kietzmann J. H. Hermkenz K., McCarthy I.P., Silvestre B.S. Social media? Get serious! Understanding the functional building blocks of social media //Business horizons. – 2011. – T. 54. – №. 3. – P. 241-251.; Boz M., Unal D. Successful promotion strategy in destination tourism marketing through social media; Queensland, Australia Case //Regional Science Conference with International Participation with the Theme Stable Local Development Challenges and Opportunities. – 2011. – P. 3-4; Bolton R. N., Parasuraman A.P., Hoefnagels A., Migchels N. Understanding Generation Y and their use of social media: a review and research agenda //Journal of service management. – 2013. – T. 24. – №. 3. – P. 245-267; Mansour O. The bureaucracy of social media: An empirical account in organizations. Linnaeus University Press, 2013. – 254 p.; Treem J. W., Leonardi P. M. Social media use in organizations: Exploring the affordances of visibility, editability, persistence, and association //Annals of the International Communication Association. – 2013. – T. 36. – №. 1. – P. 143-189; Leung D., Law R., Van Hoof H., Buhalis D., Social media in tourism and hospitality: A literature review //Journal of travel & tourism marketing. – 2013. – T. 30. – №. 1-2. – P. 3-22; Živković R., Gajić J., Brdar I. The impact of social media on tourism //Singidunum Journal of Applied Sciences. – 2014. – P. 758-761; Manning J. Definition and classes of social media //Encyclopedia of social media and politics. – 2014. – P. 1158-1162; Trottier D., Fuchs Ch. Social media, politics and the state //Protests, Revolutions, Riots, Crime and Policing in the Age of Facebook, Twitter and YouTube. New York and London: Routledge. – 2015. – 264 p; Kiráľová A., Pavlíčeka A. Development of social media strategies in tourism destination //Procedia-Social and Behavioral Sciences. – 2015. – T. 175. – P. 358-366; Kotler P., Armstrong G. Principles of Marketing. 16th Edition. England. – 2016. – 708 p; Tarannum T.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlaridan L.Apanasyuk, A.Bodnya, O.Kraynova o'z tadqiqotlarida turizmدا ijtimoiy medianing turistik ta'minotchilar nuqtai nazaridan shakllanishini yoritib bergan⁵.

Mamlakatimiz olim va tadqiqotchilaridan B.Navruz-zoda, N.Ibragimov, I.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Safarov, G.Tursunova, A.Rakhmanov, N.Mansurova, F.Baxromkulova, M.Ziyodullayeva, X.Abduganiyevnalarning⁶ ilmiy izlanish va asarlarida ijtimoiy medianing turistlarga axborot berishdagi o'rni, axborotning turizm sohasidagi qamrov darajasi hamda turistik hudud brendiga oid muhim masalalar tadqiq etilgan. Ammo, mamlakatimizda turistik destinatsiyalarda ijtimoiy mediadan foydalanish hamda alohida turistik destinatsiyalarning rasmiy ijtimoiy media akkauntlari va ular uchun yagona tartibdagi brendning yaratilish ahamiyati, ijtimoiy medianing turistlar xulq-atvori va tashrif buyurish qaroriga ta'siri, ijtimoiy mediadan samarali foydalanish modeli, turistik destinatsiyalar uchun ijtimoiy media strategiyalari, Instagram portali uchun kontent rejalar yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan. Bularning barchasi ushbu tadqiqot ishi mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining №HTR-03 "Hududiy turizmni rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Turistik destinatsiyalarda ijtimoiy mediadan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijtimoiy media rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va uni tadqiq etishning nazariy asoslarini o'rganish;

turizmدا ijtimoiy mediadan foydalanishning mohiyati va asosiy yo'nalishlarini tadqiq etish;

ilg'or xorijiy turistik destinatsiyalar targ'ibotida ijtimoiy mediani qo'llash tahlilini olib borish;

Effectiveness of social media in promoting tourism in Bangladesh. KDI School, 2020. – 98 p; Tjiptono F., Khan G., Yeong E. S. Analyzing the Use of Social Media Communication Strategies in Indonesia and Malaysia: Insights and Implications //Marketing Communications in Emerging Economies, Volume II: Conceptual Issues and Empirical Evidence. – 2022. – P. 247-275.

⁵ Крайнова О. С. Инновационные маркетинговые инструменты в продвижении туристских предприятий: нереализованный потенциал социальных медиа //Индустрия туризма и сервиса: состояние, проблемы, эффективность, инновации. – 2014. – С. 22-35; Апанасюк Л. А., Бодня А. А. Социальные медиа как инновационный инструмент продвижения предприятий индустрии гостеприимства и туризма //Азимут научных исследований: педагогика и психология. – 2018. – Т. 7. – №. 1 (22). – С. 19-22;

⁶ Navruz-Zoda B. N., Ibragimov N., Turistik hudud raqobatbardoshligining ko'p darajali modeli: Monografiya. – Buxoro, 2018. – 160 b.; Tuxliyev I., Hayitboyev R., Safarov B., Tursunova G. et al. Turizm asoslari. Darslik //T.: Iqtisodiyot-moliya. – 2014. – T. 262. – 334 b.; Mansurova N. S., Baxromkulova F. A. Turizm Destinatsiyasida Ijtimoiy Medianing Ahamiyati //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – T. 4. – №. 7. – B. 47-49; Abduganiyevna X. M. Ekoturizmда PR texnologiyalarini qo'llash //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – B. 607-609; Ziyodullayeva M. Turistik korxonalar faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanish xususiyatlari //golden brain. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – B. 64-72;

turizmda ijtimoiy mediadan foydalanishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini tahlil qilish;

ijtimoiy media va Buxoro turistlar oqimi o'zaro bog'liqligining ekonometrik tahlilini amalga oshirish;

destinatsiyalarning ijtimoiy media faoliyatida "Yagona brend" siyosatini qo'llashni o'rganish;

Buxoro turistik destinatsiyasining ijtimoiy media strategiyasini ishlab chiqish; ijtimoiy mediada maqsadli auditoriya uchun namunaviy kontent reja shakllantirish;

Buxoro viloyatining istiqboldagi xorijiy turistlar oqimini prognozlash;

Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro turistik destinatsiyasi ijtimoiy media subyektlari faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti turistik destinatsiyalarda ijtimoiy mediadan foydalanishni takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, statistik tahlil, omilli tahlil, ekonometrik tahlil hamda anketa-so'rovnoma usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"turizmda ijtimoiy media" tushunchasining iqtisodiy mazmuni turistik iste'molchilar nuqtai nazaridan "sayohatning 3 fazasi"da, ta'minotchilar nuqtai nazaridan "onlayn texnologiyalarning 5 funksiyasi"da foydalanish jihatlariga ko'ra takomillashtirilgan;

turistik destinatsiyalarning ijtimoiy media faoliyatini kompleks tarzda samarali tashkil etish yondoshuvi "Strategiya", "Brend", "Ta'rif", "Kontent reja", "Hikoyalar rejasi", "Targ'ibot" bosqichlardan iborat 6 bo'g'inli "Turistik destinatsiyalarning ijtimoiy media modeli (TDIMM)" tizimini yaratish orqali takomillashtirilgan;

hududlarning turistik jozibadorligini oshirish yondoshuvi Buxoro viloyatining ijtimoiy mediadagi rasmiy akkauntlaridan foydalanib, kontent turi, mavzusi, shakli, sarlavhasi, izohi, e'lon qilinish vaqtlariga asoslanuvchi akkauntlarning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan namunaviy kontent reja asosida takomillashtirilgan;

Buxoro viloyatiga tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar oqimi dinamikasining o'zgarishiga asoslangan holda 2030-yilgacha bo'lgan xorijiy turistlar oqimining istiqboldagi prognoz natijasi asosida ijtimoiy media strategiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turizmda ijtimoiy media tushunchasi "turistik ta'minotchi" hamda "turistik iste'molchi" nuqtai nazaridan ta'riflanib, ushbu ko'rsatkichlarning turizmda sohalar, ya'ni "Destinatsiya", "Diqqatga sazovor joylar", "Turistik korxonalar" hamda "Qo'shimcha xizmatlar" kesimida foydalanish ko'lami ishlab chiqilgan;

ijtimoiy media orqali brendni tanitish, sayyohlar xabardorligini oshirish hamda potensial sayyohlar oqimini ko'paytirish yondoshuvi turistik destinatsiyalarning ijtimoiy mediadagi bir yillik targ'ibot va harakatlarni to'liq qamrab olishga asoslangan ijtimoiy media strategiyasi ishlab chiqilgan;

Buxoro turistik destinatsiyasining rasmiy ijtimoiy media akkauntlari brendini mamlakatning bir qismi sifatida namoyon qilish maqsadida O‘zbekiston turistik brendi analog sifatida olingan holda atributlari (rang, yozuv shakli, belgilari) bir biriga yaqin ko‘rsatkichlardan foydalangan holda ishlab chiqilgan;

Buxoro turistik destinatsiyasining ijtimoiy medianing algoritmlari bir-biriga yaqin platformalari, xususan, Instagram uchun yaratilgan 1 yillik brendni tanitish strategiyasini amaliyotda qo‘llash bo‘yicha barcha bo‘g‘inlarni to‘liq qamrab oluvchi chora-tadbirlar ishlab chiqilgan;

rasmiy ijtimoiy media akkauntlari uzluksiz ravishda faol va turistik iste‘molchilarga maksimal yetib borishini ta‘minlash maqsadida postlar turistik destinatsiya uchun mos ravishda turlar kesimida klassifikatsiyalangan va ularning e‘lon qilinish vaqtlari taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi ma‘lumotlar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi hamda qo‘mita tarkibidagi “Milliy PR-markazi” DUK hisobotlaridan olinganligi, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish, statista.com xalqaro statistika portali ma‘lumotlaridan foydalanganligi, keltirilgan tahlillar va tadqiqot ishlari samaradorligi matematik-statistika usullari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turistik destinatsiyalarda ijtimoiy mediadan foydalanishning nazariy jihatdan asoslanganligi, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar turizm targ‘ibotida ijtimoiy mediadan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-nazariy, o‘quv-uslubiy chora tadbirlar, alohida turistik destinatsiyalarining ijtimoiy media akkauntlari uchun strategiya, kontent rejalar shakllantirish hamda turizmga ijtimoiy mediaga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston va uning alohida turistik destinatsiyalari uchun ijtimoiy media akkauntlari shakllantirish hamda doimiy rivojlantirish bo‘yicha dasturiy hujjatlarni, sohani rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni, hududlarda turizm targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar faoliyatini takomillashtirishga doir tadbirlarni ishlab chiqishda, shuningdek, “Turizm asoslari”, “Turizm marketingi”, “Destinatsion menejment”, “Turizm va mehmonxona xo‘jaligi iqtisodiyoti”, “Statistika” kabi fanlar bo‘yicha ishchi o‘quv dasturlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Turistik destinatsiyalarda ijtimoiy mediadan foydalanishni takomillashtirish yo‘llari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“turizmga ijtimoiy media” tushunchasining iqtisodiy mazmuni turistik iste‘molchilar nuqtai nazaridan “sayohatning 3 fazasi”da, ta‘minotchilar nuqtai nazaridan “onlayn texnologiyalarning 5 funksiyasi”da foydalanish jihatlariga ko‘ra takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-

yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining 3-ilovasi “Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish hamda zarur shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 6-sentabrdagi 03-12-17-5832-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Turizmda ijtimoiy media” tushunchasi ikki tomonlama yondashuv asosida o‘rganilib, ijtimoiy media orqali turistik destinatsiyalar faoloyatini olib borishda uzatiladigan ma‘lumotlarning keng qamrovligi hamda barcha turizm qatnashuvchilarini o‘z ichiga olishiga erishilgan.

turistik destinatsiyalarning ijtimoiy media faoliyatini kompleks tarzda samarali tashkil etishda “Strategiya”, “Brend”, “Ta’rif”, “Kontent reja”, “Hikoyalar rejasi”, “Targ‘ibot” bosqichlaridan iborat 6 bo‘g‘inli “Turistik destinatsiyalarning ijtimoiy media modeli (TDIMM)”ga asoslanuvchi yondoshuv maqsadga muvofiqligi ilmiy asoslangan taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining 7-chora-tadbiri, 3-ilovasida tasdiqlangan yo‘l xaritaning 8-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 6-sentabrdagi 03-12-17-5832-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida turistik destinatsiyalarning ijtimoiy media akkauntlari tashkil etilishidan boshlab, targ‘ibot bosqichiga kelguniga qadar shakllantirilish orqali sifatning yaxshilanishi, bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy media sifat darajasi 1% ga ortganda, viloyatga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonini 0,68% ga oshishiga olib kelishi asoslandi.

hududlarning turistik jozibadorligini oshirish yondoshuvi Buxoro viloyatining ijtimoiy mediadagi rasmiy akkauntlaridan foydalanib, kontent turi, mavzusi, shakli, sarlavhasi, izohi, e‘lon qilinish vaqtlariga asoslanuvchi akkauntlarning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan namunaviy kontent reja asosida takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining 4-bandini, 1-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 6-sentabrdagi 03-12-17-5832-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida Buxoro turistik destinatsiyasi ijtimoiy media orqali e‘lon qiladigan mavzulari aniqlanishi va har oyda bir marta berilgan namunaviy reja asosida yangilanib borilishi imkoniyati yaratilgan.

Buxoro viloyatiga tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar oqimi dinamikasining o‘zgarishiga asoslangan holda 2030-yilgacha ishlab chiqilgan xorijiy turistlar oqimining istiqboldagi prognozini O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo‘mitasi

tomonidan turizmini rivojlantirishning mintaqaviy dasturlari va “Yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 6-sentabrdagi 03-12-17-5832-son ma‘lumotnomasi). Ushbu prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanish, turistlar oqimini 2030-yilda 2023-yilga nisbatan 4,09 marotaba ko‘payish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 8 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 127 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot muammosini o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda ularni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi tavsiflab berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Turistik destinatsiyalarda ijtimoiy mediadan foydalanishning nazariy asoslari**” deb nomlanib, unda, ijtimoiy media rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va uni tadqiq etishning nazariy asoslari, turizmga ijtimoiy mediadan foydalanishning mohiyati va asosiy yo‘nalishlari, hamda, ilg‘or turistik destinatsiyalarning ijtimoiy mediadan foydalanish faoliyati tahlili keltirilgan.

Ijtimoiy medianing paydo bo‘lishi yaqin o‘tmishga taqalib, hozirgi kunda, internet va axborot texnologiyalari rivojlanib borayotganligi sababli, insonlarning kundalik yumushidan tortib, davlat ahamiyatiga molik ishlarni bajarishda uning o‘rni va yaratib beruvchi imkoniyatlari beqiyosdir. XXI asr, xususan, COVID-19 postpandemiyasidan so‘nggi davrda esa turizm sohasini ijtimoiy medianing ta‘siriz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hattoki, og‘riqli pandemiya davrida, insonlar kundalik tashvishlardan siqilgan bir payda, ijtimoiy mediadan uydan o‘tirib virtual turizmni amalga oshirishda foydalanilgan. Hozirgi kunda, ijtimoiy medianing juda ko‘p turi mavjud bo‘lib, ulardan foydalanish imkoniyatlari ham bir-biridan farq qiladi.



1-rasm. 2022-yil yanvar va 2024-yil yanvar holatiga ko‘ra oylik faol foydalanuvchilar soni bo‘yicha dunyo bo‘ylab eng mashhur ijtimoiy tarmoqlar (millionda)⁷

Ushbu rasmda dunyo bo‘yicha eng ko‘p foydalanuvchilar soniga ega bo‘lgan 15 ta ijtimoiy tarmoq saytlarining 2 yillik taqqoslama ko‘rsatkichlari berilgan. Bozor yetakchisi bo‘lgan Facebook bir milliard ro‘yxatdan o‘tgan akkauntlardan oshib ketgan birinchi ijtimoiy tarmoq hisoblanib, hozirda oylik uch milliarddan ortiq faol foydalanuvchilarga ega. Meta platforma to‘rtta eng yirik ijtimoiy media platformasiga egalik qiladi, ularning har biri har oyda bir milliard faol foydalanuvchiga ega bo‘lib, bular, Facebook (asosiy platforma), WhatsApp, Facebook Messenger va Instagram.

Ijtimoiy media turizm sohasiga kuchli ta‘sir qiluvchi ikki “mega trend”ning biri bo‘lib, ikkinchisi qidiruv tizimlari hisoblanadi⁸. So‘nggi yillarda turizm

⁷ Xalqaro statistika bazasi statista.com ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

ijtimoiy media turistik ta'minotchilar va turistik iste'molchilar tomonidan keng foydalanib kelinmoqda, bu esa turizmدا ijtimoiy media ikki xil nuqtai nazardan, ya'ni, iste'molchilar va ta'minotchilar tomonidan o'rganish kerakligidan dalolat beradi. Turistik iste'molchilar nuqtai nazaridan, ijtimoiy media sayohatni rejalashtirishning 3 fazasida foydalaniladi. Bular, sayohatdan oldin, sayohat paytida va sayohatdan keyingi davrlarni o'z ichiga oladi. Turistik ta'minotchilar nuqtai nazaridan ijtimoiy media avstraliyalik olim Carson va hindistonlik olim Sharma⁹ tomonidan taklif qilingan ijtimoiy medianing 5 funksiyasi orqali foydalaniladi. Bular, targ'ibot, mahsulot taqsimoti, aloqa, boshqaruv hamda tadqiqotdir. Ammo, olimlar orasida turizmدا ijtimoiy mediaga ta'rif berish va uni o'rganishda duch kelinayotgan eng asosiy muammolardan biri bo'lib unga bir tomonlama izoh berilayotganligi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, turizmدا ijtimoiy media iste'molchilar hamda ta'minotchilarni inobatga olib, sayyohlarga "sayohatning 3 fazasi" orqali sayohatni rejalashtirishda sayohat tajribalari bilan tanishish, amalga oshirishda ta'minotchi ma'lumotlaridan foydalanish hamda taassurotlar bilan bo'lishishda shaxsiy tajribaga tayanish, ta'minotchilarga "onlayn texnologiyalarning 5 funksiyasi" orqali turistik xizmatlarni targ'ib qilish, sotish, mijozlar bilan aloqa o'rnatish, boshqarish va tadqiqot orqali maqsadli auditoriya yaratish hamda ijobiy foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentning tashkil qilinishiga imkon yaratuvchi vositadir.



Destinatsiya	
Diqqatga sazovor joylar	<ul style="list-style-type: none"> • muzey • gallereya • tabiiy va tarixiy joylar • boshqalar
Turistik korxonalar	<ul style="list-style-type: none"> • tur operator va agentlik • joylashtirish vositalari • ovqatlantirish korxonalari • transport korxonalari
Qo'shimcha xizmatlar	<ul style="list-style-type: none"> • gid-ekskursiya • sug'urta • bank va boshqalar

2-rasm. Turizmدا ijtimoiy media qo'llaniladigan sohalar¹⁰

Ta'minotchi hamda iste'molchi nuqtai nazaridan turizm industriyasida ijtimoiy media turli xil sohalarда qo'llanilishi mumkin. Birinchi navbatda, turistik destinatsiya, ya'ni makonni rivojlantirish, aholiga tanitish hamda targ'ibot qilish maqsadida media foydalanuvchilari bilan aloqaga kirishish maqsadidadir. Bunda, asosan, WWW da hamda ijtimoiy tarmoq saytlarida rasmiy akkauntlarni hamda veb saytlarni ochish orqali amalga oshiriladi. Hozirda, ko'plab sayyohlar sayohat

⁸ Leung D., Law R., Van Hoof H., Buhalis D., Social media in tourism and hospitality: A literature review //Journal of travel & tourism marketing. – 2013. – T. 30. – №. 1-2. – P. 3-22.

⁹ Carson D., Sharma P. Trends in the use of Internet technologies //World Hospitality and Tourism Trends. – 2001. – T. 2. – №. 3. – P. 116-128.

¹⁰ Muallif ishlanmasi

joylari, xizmat ko'rsatuvchilar va narxlar haqida ma'lumot olish uchun onlayn mediadan foydalanadilar, bu esa kelajakdagi xaridlar uchun juda muhim dastlabki qadam bo'lib xizmat qiladi. Turistik destinatsiyalarda mavjud turistik diqqatga sazovor joylar ham ijtimoiy media kanallari orqali alohida targ'ib qilinishi mamlakatdagi mavjud turistik salohiyatning oxirgi iste'molchiga yetib borishi va sayohatga bo'lgan moyillikning oshishi uchun muhim manba hisoblanadi.

Ijtimoiy media xalqaro turizm bozoriga yaqinda kirib kelib, rivojlanayotgan tushuncha bo'lib, undan foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil qilishning chegarasi mavjud emas. Mashhur ijtimoiy media platformalarida turistik destinatsiyalarning foydalanuvchilar sonini hisoblab, eng ko'p auditoriyaga ega mamlakatlarning tajribasini tahlil qilish bir usul sifatida qo'l kelishi mumkin. Ammo, eng samarali natijaga erishish uchun pandemiyadan oldin va keyingi xalqaro turizmda yuqori o'rinlarda turgan davlatlarning ijtimoiy media faoliyatini tahlil qilish lozimdir. Chunki, hozirgi internet va zamonaviy axborot texnologiyalar davrida ushbu destinatsiyalarga tashrif buyuruvchi katta hajmdagi turistik oqimning aksariyat qismi ijtimoiy media ta'sirida bo'ladi. 2019-yil hisobiga ko'ra, dunyo bo'ylab xalqaro sayyohlarning tashrif buyurishi bo'yicha eng yuqori o'rindan Fransiya davlati joy olgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 90 million sayyohni tashkil etadi. Dunyo aholisini tahlil qilish (worldpopulation review¹¹), UNWTO¹² va Wikipedia¹³ saytlarining ma'lumotiga ko'ra, 2019-2022-yillarda xalqaro sayyohlarning tashrif buyurishi bo'yicha dunyoda quyidagi 10 ta davlat yetakchilik qilgan:

1-jadval.

Destinatsiyalarning Instagram faoliyati tahlili¹⁴

	Turistik destinatsiya nomi	Platformada nomi	Kuzatuvchilar soni	Postlar soni	3 oydagi postlar soni	1 kundagi istoriya soni
1	Fransiya	explorefrance	276000	3144	90	-
2	Ispaniya	spain	962000	6064	93	-
3	AQSH	visittheusa	371000	3066	82	-
4	Turkiya	goturkiye	3100000	7054	188	6
5	Italiya	visititaly	1200000	4385	277	2
6	Meksika	visitmexiko	738000	4089	33	-
7	Britaniya	lovegreatbritain	772000	3076	96	-
8	Germaniya	germanytourism	611000	3581	94	-
9	Gretsiya	visitgreecegr	679000	3651	99	3
10	Avstriya	visitaustria	534000	4336	69	-

Yuqoridagi jadval 2022-yilda xalqaro sayyohlarning soni jihatidan yetakchilik qilgan turistik destinatsiyalarning ijtimoiy tarmoq saytlari ichidagi eng faol va mashhurlaridan bo'lgan Instagram ilovasidagi tahlili keltirilgan. Ushbu mamlakatlar qatorida foydalanuvchilar jihatidan eng ko'p kuzatiladigani

¹¹ Dunyo aholisini tahlil qilish rasmiy veb-sayti, <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/most-visited-countries>, murojaat sanasi: 16.08.2024

¹² Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ning rasmiy veb-sayti, <https://www.e-unwto.org>, murojaat etilgan sana: 16.08.2024

¹³ Bepul onlayn ensiklopediya, <https://en.wikipedia.org>, murojaat etilgan sana: 16.08.2024

¹⁴ Muallif izlanishlariga asosan tayyorlandi (2024-yil yanvar, fevral, mart).

Turkiyaning Instagram sahifasi bo'lib, shu qatorda, mazkur destinatsiya ham o'zining izdoshlarini juda sifatli hamda foydali kontent bilan muntazam xursand qilib keladi. Xalqaro sayyohlarning tashrifi soni jihatidan yetakchilik qilgan ushbu 10 ta mamlakat qatorida umumiy postlar soni jihatidan ham, kuzatuvchilar soni jihatidan ham Turkiya destinatsiyasi faol hisoblanadi. Ijtimoiy mediada faollik jihati ushbu davlatga sayyohlarning tashrifiga ta'sir qiladigan ko'rsatkichlardan biri ekanligiga isbot bo'lishi mumkin. Belgilangan 10 ta davlatdan bir nechta ko'rsatkichlarni xulosa qilish lozim:

- ✓ Instagram sahifasidagi nomi;
- ✓ postlarning o'rtacha soni;
- ✓ hikoyalar(Stories)larning o'rtacha soni.

Ushbu ilg'or xorijiy tajribadan, O'zbekiston va uning alohida turistik destinatsiyalari ijtimoiy media faoliyati uchun Turkiya tajribasini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lish qaroriga keldik.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston turistik destinatsiyalarida ijtimoiy mediadan foydalanish holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida turizmga ijtimoiy mediadan foydalanishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari, ijtimoiy media va Buxoro turistlar oqimi o'zaro bog'liqligining ekonometrik tahlili hamda destinatsiyalarning ijtimoiy media faoliyatida “Yagona brend” siyosatini qo'llash bo'yicha tahlillar olib borilgan.

Hozirgi kunda, O'zbekistonning turizm targ'iboti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tarkibida faoliyat olib boruvchi “Milliy PR-markazi” DUK shug'ullanadi. Ushbu korxonada O'zbekistonning turistik salohiyatini ijtimoiy medianing bir necha turlari orqali, shu jumladan, Facebook, Instagram, Pinterest, Telegram, Youtube hamda Twitter orqali yoritib boradi. Mazkur korxonani tahlil qilish jarayonida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

➤ ijtimoiy mediada “Uzbekistan.travel” nomi ostida mamlakatda mavjud barcha diqqatga sazovor joylar umumiy ko'rsatilib, ular haqidagi ma'lumotlar qisman yoritilgan. Ma'lumotlar aniq mavzulashtirilmagan va O'zbekistonning har bir turistik destinatsiyasi uchun viloyatlar kesimida akkauntlar yaratilmagan;

➤ keltirilgan ma'lumotlar aniq bir maqsadli auditoriyaga qaratilmagan va maqsadli reklamadan unumli foydalanilmaydi. Umumiy ko'rinishda keltirilgan ma'lumotlar ichidan bir nechta bozorga mos keladigani tanlanib, maqsadli reklamaga beriladi;

➤ kontent reja bir haftalik tuzilib, aniq qoidalarga bo'y sunmaydi. Ma'lumotlar betartib keltirilib, aniq bir turistik destinatsiya va mavzuga proporsional olinmagan. Kontent rejada mavzular bo'linmasi inobatga olinmagan. Rejalashtirilgan post kuni va vaqti o'zgarish ehtimoli katta;

➤ ijtimoiy mediada aniq bir strategiya bo'yicha ish olib borilmaydi;

➤ postlar mavjud rasm hamda videoroliklar bazasidan tayyorlanadi. Yangi turdagi kreativ kontent uchun yangi materiallar tayyorlanmaydi va ijtimoiy media trendlari mavjud emas;

➤ Instagram tarmog'idagi “Davomiy hikoyalar” (Instagram Highlights) to'ldirilmagan va biror ma'lumotga ega emas;

➤ yangi turistlarni jalb qilishning turli yo'llaridan, ya'ni, ijtimoiy mediada bepul hamda pullik reklama usullaridan foydalanilmaydi.


Ushbu kamchiliklarni bartaraf qilish, Buxoro viloyatida ijtimoiy medianing turistlar oqimi, shu bilan birga, sayyohlar xabardorligi va tashrif buyurish qaroriga ta'siri, sayyohlarning mamlakatga tashrifidagi ijtimoiy mediadan foydalanish ko'rsatkichlari, O'zbekiston, xususan, Buxoro turistik destinatsiyasining ijtimoiy media faoliyatidagi keyingi qadamlarni aniqlash maqsadida anketa-so'rovnoma ko'rinishida tadqiqot olib borildi.

2-jadval.

So'rovnoma natijalari¹⁵

Ijtimoiy medianing rivojlanish darajalari	Turistlar oqimining hajmi					Σ
	Juda yuqori	Yuqori	O'rta	Quyi	Ahamiyatsiz	
Yuqori	65	53	19	39	15	191
O'rta	72	86	75	87	55	375
Quyi	29	39	29	19	68	184
Σ	166	178	123	145	138	750

Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, χ^2 kvadrat statistikaning hisoblangan qiymatlari uning jadval qiymatlaridan katta bo'lib chiqdi. Buning natijasida, bizda qaralayotgan H_0 : (ijtimoiy medianing rivojlanish darajasi va tashrif buyuruvchi turistlar oqimi o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud emas) gipoteza rad etilib, uning o'rniga H_1 gipoteza qabul qilindi. H_1 gipotezaga ko'ra, ijtimoiy medianing rivojlanishi va tashrif buyuruvchi turistlar oqimi o'rtasida o'zaro muhim aloqadorlik mavjud deb topildi.




4-rasm. Xorijiy sayyohlarning kundalik va O'zbekistonga tashrif buyurishdan oldin ishlatgan ijtimoiy media turlari¹⁶

Berilgan diagrammada xorijiy sayyohlarning kundalik hayotda ijtimoiy media turlaridan foydalanish ko'rsatkichlari hamda O'zbekistonga sayohat qilish qarorini qabul qilishda ular ma'lumot olish uchun ishlatgan ijtimoiy media turi

¹⁵ Respondentlarning so'rovnomalari asosida shakllantirilgan.

¹⁶ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ko'rsatkichlari keltirilgan (sayyohlarga bir nechta javob variantlarini tanlash imkoni berilgan). Odatiy hayotda hamda mamlakatimizga kelishdan oldin sayyohlar tomonidan asosiy urg'u Instagram va Youtube platformalariga berilgan.



5-rasm. Sayyohatdagi ijtimoiy media ta'siri va hududlararo ijtimoiy media akkauntlari ochish to'g'risidagi fikri¹⁷

Ushbu diagrammada ijtimoiy media portallarida mavjud rasmiy hamda norasmiy akkauntlar orqali uzatilgan ma'lumotlar sayyohlar uchun sayohatni rejalashtirishdan tortib, O'zbekistonga tashrif yakunlangunicha ta'sir ko'rsatish darajasi hamda har bir turistik destinatsiya uchun ijtimoiy media kanallarida rasmiy akkauntlar ochish haqida ularning fikri aks ettirilgan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, O'zbekistonning alohida turistik destinatsiyalari uchun ijtimoiy media akkauntlarini yaratish hamda boshqarishda, ularni boyitib borish, kontent rejalar tuzish, mustaqil sayohat uchun kerak bo'ladigan muhim ma'lumotlar joylash kabi harakatlarda xorijiy sayyohlar tomonidan kundalik hayotda eng ko'p foydalaniladigan Instagram, Facebook hamda Youtube platformalarini inobatga olish zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, ma'lumotlar sifatini yaxshilash hamda sayohatdagi xizmatlar to'g'risida ma'lumotlar hajmini ko'paytirishda ham ushbu platformalarga e'tibor qaratish lozim.

O'zbekistonning alohida turistik destinatsiyalari uchun ijtimoiy media rasmiy akkauntlarini ochish va rivojlantirish zarurligi, ushbu akkauntlar uchun O'zbekistonning ijtimoiy media brendi analog sifatida olinish kerakligi xulosasiga kelindi. Professor N.S.Ibragimovga ko'ra, turistik hudud brendi turistik hudud nomi, logotip va slogandan tashkil topadi. Ushbu formulaga asosan, O'zbekiston ijtimoiy brendi tahlil qilindi:

¹⁷ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan



6-rasm. Turistik hudud brendining O‘zbekiston ijtimoiy media (Instagram) akkauntidagi sharhi¹⁸

Yuqoridagi rasmda, O‘zbekiston turistik destinatsiyasi THBning Instagram ko‘rinishi keltirilgan bo‘lib, bunda brendning bir jihati, ya’ni slogan yetmayotganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Logotipda mamlakat nomi noodatiy oq shifrdada, orqa foni esa yashil rangda bezatilgan. Ushbu ranglar hamda ramzlarni mamlakatimizning alohida turistik destinatsiyalari, xususan, Buxoro uchun analog ko‘rinishida olish, sayyohlar uchun ushbu hududlar O‘zbekistonning bir qismi ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur usul turizm sohasida sayyohlarning ushbu hudud to‘g‘risidagi xabardorligini oshirish, ong ostida sayohat manzilgohini tanlash jarayonida Buxoro destinatsiyasi yuqori ehtimolda bo‘lish imkonini beradi.



7-rasm. Turistik hudud brendining Buxoro ijtimoiy media akkauntidagi sharhi (shablon)

Yuqoridagi rasmda muallif tomonidan shakllantirilgan Buxoro turistik destinatsiyasining Instagram akkauntida turistik hudud brendining sharhi keltirilgan. Ushbu akkaunt shablon ko‘rinishida bo‘lib, rasmiy kuchga ega emas. “Soyabon brendi strategiyasi (Umbrella branding strategy)”dan kelib chiqqan

¹⁸ O‘zbekiston turistik destinatsiyasining Instagram akkauntidan foydalangan holda muallif ishlanmasi (17.09.2024 hisobiga ko‘ra).

holda, Buxoro brendi mamlakatniki analog sifatida tashkil qilingan. Bunda logotip sifatida profil yuzi, turistik hudud nomi sifatida “Travel Bukhara”, slogan sifatida esa “Holy Bukhara” jumlasini keltirilgan.



8-rasm. Buxoro turistik destinatsiyasining muallif taklif qilgan ijtimoiy media logotipi¹⁹


Hozirgi kunda, Buxoro turistik destinatsiyasining ijtimoiy mediadagi turistik logotipi mavjud bo‘lmaganligi sababli, yuqoridagi logotip uchun O‘zbekistonning logotipi analog sifatida xizmat qilgan bo‘lib, yaratilishi rejalashtirilgan akkauntlarda profil yuzi sifatida ishlatilish taklifini kiritdik. Ushbu holatni “Soyabon brendi strategiyasi”ga asosan Turkiyaning ijtimoiy media tajribasi orqali ham ko‘rishimiz mumkin. Turkiya mamlakati o‘z turistik faoliyatini ijtimoiy media portallari orqali shakllantirayotgan dastlabki qadamlarda barcha turistik destinatsiyalarini mamlakatning bir qismi sifatida tanitish uchun ularning ijtimoiy media logotipini mamlakatniki bilan bir xil o‘zak asosida tashkil qilgan. Tanitishdan keyingi ikkinchi, ya’ni, mashhurlik qadamida logotiplarni o‘zgartirib, har bir destinatsiya uchun uning o‘ziga xosligini yorituvchi alohida logotiplar shakllantirilgan. O‘zbekiston hali ijtimoiy media kanallari orqali tanitish qadamida bo‘lganligi sababli, barcha viloyatlar logotipi uchun mamlakat logotipi analog bo‘lishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ijtimoiy mediada turistik destinatsiyalar faoliyatini to‘g‘ri va samarali tashkil qilish uchun “Turistik destinatsiyalarning ijtimoiy media modeli”ni shakllantirishni maqsadga muvofiq deb topdik (9-rasm). Ushbu modelda O‘zbekistonning har bir turistik destinatsiyasi uchun alohida akkaunt tashkil qilinganda uning har bir aspekti shakllantirilish ketma-ketligi va ularning tarkibi keltirilgan. Olib borilgan tahlillarga ko‘ra, har bir akkaunt shakllantirilishidan avval uning bir yillik strategiyasi shakllantiriladi. Strategiyaning har bir bo‘g‘ini aniqlanib olingandan so‘ng, destinatsiya brendi akkauntida o‘z aksini topadi. Bunda, ijtimoiy media uchun logotip shakllantirilib, profil yuzi sifatida o‘z o‘rnini egallaydi, shu bilan birga, destinatsiyaga mos bo‘lgan nom bilan nomlanadi.

Destinatsiyaning tashqi ko‘rinishi hisoblangan brend shakllantirilganidan so‘ng destinatsiyaga ta’rif beriladi. Bunda, asosan, destinatsiyani boshqaruvchi

¹⁹ Muallif ishlanmasi

tashkilot va destinatsiya slogani keltiriladi. Ijtimoiy media turiga qarab ta'rif nomi o'zgaradi (Instagram Bio, Telegram Description, Youtube Description). So'ng, akkauntni mag'zi bo'lgan postlar uchun kontent reja tuziladi. Ushbu reja har oy yangilanib, maxsus mavzular ostida shakllanadi.



9-rasm. Turistik destinatsiyalarning ijtimoiy media modeli²⁰

Modelga muvofiq, postlardan keyingi o'rinni hikoyalar egallaydi. Ammo, ular ijtimoiy media turiga qarab o'zgaradi. Masalan, Instagram portalida ular qisqa va davomiy bo'lib, qisqa hikoyalar "Instagram Stories" deb nomlanadi va 24 soatda yo'qoladi. Davomiy hikoyalar esa "Instagram Highlights" deb nomlanib, postlar kabi akkauntida doimiy mavjud bo'ladi, shu sababli, ular guruhlanib, nomlanadi. Hikoyalar samarali ishlashi uchun ularga ham kontent reja tayyorlanadi. Ushbu qadamda turistik destinatsiyalarning ijtimoiy media akkaunti to'liq shakllangan bo'ladi va bir oylik postlar joylanandan so'ng, uni targ'ib qilish mumkin bo'ladi. Targ'ibot kanallari 2 xil, pullik va bepul bo'lib, pullik reklama turlariga Instagram va Facebookda reklama sozlash, sayohat bloggerlari va sohadagi mashhur shaxslar orqali reklama qilish tushunilsa, bepul reklama turiga hashtaglar, User Generated Content (UGC – obunachilar o'z fikrlarini bildirib tayyorlagan postlari) va barter kiradi. Barter – bu ikki akkaunt bir-birining mahsulot yoki xizmatini reklama

²⁰ Muallif ishlanmasi

qilishidir. Ushbu qadamlar samarali tashkil qilinsa, O‘zbekiston turistik destinatsiyalari ijtimoiy media orqali muvaffaqiyatli targ‘ib qilinadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Buxoro turistik destinatsiyasida ijtimoiy mediadan foydalanishni takomillashtirish yo‘nalishlari**” deb nomlanib, unda Buxoro turistik destinatsiyasining ijtimoiy media strategiyasini ishlab chiqish, ijtimoiy mediada maqsadli auditoriya uchun kontent reja shakllantirish hamda Buxoro viloyatida istiqboldagi xorijiy turistlar oqimini prognozlash bo‘yicha ishlar olib borilgan.

Buxoro turistik destinatsiyasi ijtimoiy media orqali biror bir targ‘ibot kanaliga ega emasligi sababli, turizmga ijtimoiy media strategiyasi turlaridan eng dastlabkisi, ya’ni, brendni tanitish strategiyasi qo‘llaniladi. U bir nechta komponentlarni o‘z ichiga oladi:




10-rasm. Buxoro turistik destinatsiyasining ijtimoiy media (Instagram) strategiyasi²¹

Umuman olganda, Buxoro turistik destinatsiyasi uchun ijtimoiy media strategiyasi sayyohlarni jalb qilishga va destinatsiya imijini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Yuqorida berilgan ijtimoiy media strategiyasi, asosan, Instagram ijtimoiy media kanalini qamram oladi, lekin uning qoidalari boshqa ijtimoiy media turlariga ham to‘g‘ri keladi. Chunki, Buxoro destinatsiyasining biror ijtimoiy media kanalida o‘z shaxsiy akkaunti mavjud emas va barcha kanallarda bir xil tezlik va harakatda faoliyat olib borishi juda muhimdir.

Ijtimoiy media orqali strategiya tanlanib, shakllantirilgandan so‘ng, kontent reja tuzish lozim. Ijtimoiy media kontent rejasi – bu jadval yoki matn ko‘rinishidagi butun oy uchun har bir media turiga mo‘ljallangan nashrlar jadvali. Masalan, Instagram, Facebook, Telegramda har biriga alohida o‘ziga mos bo‘lgan rejalar to‘plami. Turistik destinatsiya shaxs yoki korxonaga bo‘lmaganligi uchun, uning shaxsiyati mavjud bo‘lmaydi, ya’ni, shaxsiy (axborot ko‘rinishidagi) kontent turining foiz ko‘rsatkichlari promo (brend) kontent turiga qo‘shiladi va natijada

²¹ Muallif ishlanmasi

ushbu turdagi kontentda turistik brend targ'ib qilinadi. Masalan, destinatsiya to'g'risidagi video lavhalar, rasmlar to'plami va boshqalar. Ushbu kontent taqsimotini quyidagi chizmada ko'rish mumkin:



11-rasm. Ijtimoiy mediada turistik destinatsiyalar bo'yicha kontent turining taqsimoti²²

